

**O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim
vazirligi**

O`rta maxsus kasb – hunar ta`limi markazi

**Guliston kompyuter va axborot texnologiyalaru kasb-hunar
kolleji**

Bitiruv malakaviy ishi

Mavzu: Web sahifalar yaratish usullari.

Bajaruvchi: Алларов Бахтиёр

BMI rahbari: _____
(imzo)

Rayimova D. I
(ismi va familiyasi)

Taqrizchi _____
(imzo)

Jabarqulova N.X
(ismi va familiyasi)

**O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim
vazirligi**

O`rta maxsus kasb – hunar ta`limi markazi

**Guliston kompyuter va axborot texnologiyalaru kasb-hunar
kolleji**

“Tasdiqlayman”
Kasbiy ta`lim bo`yicha
direktor o`rinbosari
2014 yil “ ____ ” ____

Guruh bitiruvchisi _____ ning
_____ mavzudagi
bitiruv ishi

Individual topshiriq

№	Bajarilishi kerak bo`lgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Eslatma
Tushuntiruv yozuvi			
1	Mundaraja		
2	Kirish		
3	Nazariy qism		
4	Mehnat muhofazasi		
5	Xulosa		
6	Foydalanilgan adabiyotlar		
7	Ilova (grafik va jadval)		

Topshiriq berilgan vaqti: 2014 yil _____

Topshiriq bajarish muddati 2014 yil _____

Informatika va axborot texnologiyalari fanlar kafedrasi mudiri

(imzo)
BMI rahbari _____
(imzo)

Jabarqulova N.X
(F.I.Sh)
Rayimova D.I.
(F.I.Sh)

Mundarija

Kirish	
I. Nazariy	
1.1. Sahifalarning tiplari.....	
II. Texnologik qism	
2.1. Sahifani yangilab turish usuli.....	
III. JIHOZLAR	
3.1. Shakllardan foydalanish	
IV. Iqtisodiy qism	
V. Mexnat muhofazasi	
5.1. Kompyuter xonasiga qo`yilgan talablar	
5.2. Hisoblash markazidagi ishlab chiqarish uchun xavfli va zarali faktorlar	
5.3. Yong`in xavfsizligi xarakteristikalar.....	
VI. Xulosa	
VII. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.	

I. KIRISH

Gipermatnli ma'lumotlar tizimi ma'lumotlar bo'g'inlari to'plamlari, shu bo'g'inlarda aniqlangan gipermatnli aloqalar to'plamlari va bo'g'inlar va aloqalarni boshqarish instrumentlaridan tashkil topgan. World Wide Web texnologiyasi bu – gipermatnli taqsimlangan sistemalarni Internetga kiritish texnologiyasi va shundan kelib chiqib, u bunday tizimlarning umumiy ta'rifiga mos kelishi kerak. Bu shuni bildiradiki, gipermatnli tizimlarning yuqorida keltirilgan barcha komponentalari Web da ham bo'lishi kerak.

Webga, gipermatnli tizim sifatida, ikki xil nuqtai nazardan qarash mumkin. Birinchidan, o'zaro gipermatnli o'tishlar (ANCHOR konteyneri) vositasida bog'langan tasvirlanishi kerak bo'lgan sahifalar t'plami sifatida. Ikkinchidan, tasvirlanayotgan sahifalar (matn, grafika, uyali kod va hokazolar) ni tashkli qiluvchi elementar ma'lumot ob'ektlarining to'plami sifatida. So'nggi holatda sahifaning gipermatnli o'tishlar to'plami – bu matnga ichki qo'yilgan rasm kabi ma'lumot bo'lagi.

Ikkinchi yondashuvda gipermatnli tizim elementar ma'lumot ob'ektlari to'plami uchun gipermatnli aloqalar rolini o'ynovchi HTML-sahifalarning o'zi tomonidan aniqlanadi. Bu yondashuv tayyor komponentalardan tasvirlanayotgan sahifalarni qurish nuqtai- nazaridan ancha serhosilroqdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlardan boshlab prezedentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan jamiyatni axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarining jamiyatimizning kirib kelishi va ishlab chiqarishning barcha soxalarini avtomatlatirish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash ishlarini keng ko'lamda olib borilmoqda. Bu jixatddan jamiyatning axborotlashtirilishi borasida prezedentimizning bir qator farmonlari chiqarildi, va amalgam oshirilmoqda.

Axborot texnologiyalarida ham shunga o'xshash juda katta o'zgarish va yutuqlar amalga oshdi. Yangi axborot texnologiyalarining yoki kompyuter

texnologiyalarining yoki kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bu sohada xizmat qilish usulini yubdan o'zgartirdi. Tassavvur qilib ko'ring yaqin-yaqinlargachabiror masalani kompyuter yordamida yechish uchun algoritmni, dasturlashtirishdan birini, dasturni kompyuter xotirasiga kiritishni, uning xatolarini-yu natijani tahlil qilishni bilish talab etiladi. Bu ishni faqatgina mutaxassislariga amal qilish oshiradi. Ammo bu sohada mutahassis bo'lmagan foydalanuvchilar soni kundan-kunga ko'payishi jamiyat oldida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Shuning uchun ham yuqorida takidlab o'tilgan supermarker va servislarga o'xshash xizmat qilishning yangi Texnologiyalari joriy etishga ehtiyoj tug'ladi. Bu ehtiyoj informatsion texnologiyalarning xizmati bo'lmish Windows sistemasidir.

Zamonaviy EHMlar o'zining oldingi avlodlari kabi ishlash chog'da eng oddiy arifmetik amallarni va mantiqiy amallarni bajaradi. EHM murakkab masalarni yechishi uchun uning xotirasiga mos dasturni kiritish zarur bo'ladi. Dastur buyruqlar ketma-ketligidan, ko'rsatmalardan biror oddiy amalni bajarishga oid mashinaga berilgan ko'rsatmalardan iborat bo'lib ancha murakkab amallarni ifodalaydi.

Zamonaviy kompyuterlarda turli dasturlash tillari keng qo'llanilmoqda. Bu dasturlar iqtisodiyot, boshqarish, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishning turli sohalarida muhim ahamiyatga ega masalalarni hal qilishda ba'zan yagona omil bo'lib qolmoqda.

I. NAZARIY QISM

1.1. Sahifalarning tiplari.

Mening diplom mavzuim **“Web Sahifa ishlab chiqish”** deb ataladi.

Sahifalarning tiplari.

Web-tarmoqlarni yaratishning umumiy tamoyillari.

Aytaylik, siz WWW (*World Wide Web*, Dunyo tarmog'i)da o'z bo'g'iningizni yaratmoqchi va joylashtirmoqchi bo'dingiz. Uning qiziqarli, foydali va muximi ko'p kiriladigan bo'lishi uchun nimalar qilish kerak. Aniq javob berish kerak bo'lgan birinchi savol: Web-bo'g'in nima uchun yaratilayapti? Bun savolga ko'p narsa bog'liq: bezash usuli, yaratish va keyingi faoliyati uchun sarflanadigan harajatlar, Web ga o'rnatish uchun ma'lumotlarni tasvirlash formati, Web-serverning va Internet aloqasi kanalining dasturiy ta'minotiga bo'lgan talablar va instrumentlar. Bu yerda bir necha variantlar bo'lishi mumkin.

Agar siz qandaydir maxsulotni realizatsiya qilayotgan kompaniya uchun Web-bo'g'in yaratayotgan bo'lsangiz, u holda asosiy maqsad firma to'g'risida ma'lumot tarqatish va maxsulot reklamasi va yana Web-magazin tashkil qilish bo'ladi.

Bunda quyidagi vazifalar yechiladi:

- kompaniya imijini o'zgartirish va obro'yini ko'tarish;
- maxsulot markasini oldinga surish;
- maxsulot tug'risidagi ma'lumotlarning yetarliligi va xaridorlar uchun narxlar;
 - dilerlar tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, maxsulot tug'risidagi ma'lumotlarning yetarliligi va dilerlar uchun narxlar;
- maxsulotni Internetda to'g'ridan-to'g'ri sotish, Web-magazin tashkil qilish;
 - ofisdan tashqaridagi xodimlar uchun ichki ma'lumotlarning yetarliligi.

Boshqacha variant – bu internetda tijorat bilan shug'ullanmaydigan, balki ma'lumot tarqatadigan ilmiy yoki umumta'lim tashkilotlari uchun Web-bo'g'in yaratish. Bu holatda masala qidiruvni tashkil qilish va unga kirish uchun katta ma'lumotlar massivlarini yig'ish, qayta ishlash va Web-bo'g'inga joylashtirish to'g'risida boradi.

Va so'nggi variant – siz o'zingizning shaxsiy sahifangizni Internetga joylashtirmoqchisiz.

Qo'yilgan savollarga to'g'ri javob berish uchun Web-bo'g'in mo'ljallangan foydalanuvchilar kategoriyasini aniqlash lozim. Klientlardi jalb qiluvchi va ularni ushlab turuvchi ma'lumotlar qurilmasi psixologiya asosida qurilishi kerak. Keyinchalik Web-bo'g'in bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakatlarlarning maqbulligi sahifaga kiruvchilarni ularga nisbatan aks harakatlariga va bu harakatlar ko'zlangan maqsadga yetishga qanchalik xizmat qilishiga ko'ra baxolanmog'i lozim.

Maqsadlar belgilab va foydalanuvchilar kategoriyalari aniqlab olingandan keyin tayyorlangan ma'lumotlarni Web-dokumentlar bo'yicha taqsimlab olish, ular orasidagi bog'liqliklarni o'ylab ko'rish va qo'shimcha navigatsion imkoniyatlarni, masalan, Web-bo'g'im bo'yicha qidiruv sistemasini ko'rib chiqish kerak.

Firma Web-bo'g'ining tipik tuzilishi odatda quyidagicha tasvirlanadi:

Kompaniya to'g'risida ma'lumot. Firmaning maqsadlari va ish yuritishi usullari, uning tarixi va h. To'g'risida bayon qilish kerak. Klientlar aynan siz bilan, boshqa kompaniyalar bilan emas, hamkorlik qilib qanday foyda olishlarini ko'rsating.

Maxsulot va xizmatlar yuzasidan ma'lumot. Web-sahifaga o'zingizning maxsulotingizning rasmlarini yoki fotorasmlarini joylashtiring. Uning xususiyatlari va ustunliklarini bayon qiling va undan foydalanishga misollar keltiring. Agar maxsulotning qog'ozdagi katalogi mavjud bo'lsa, u holda uning mazmunini va strukturasini Web-bo'g'inga joylashtirish mumkin. Bu katalogning elektron variantini yaratish va yangilab turishini yengillashtiradi. Agar maxsulotga yoki xizmatlarga Internet orqali buyurtmalar qabul qilish rejalashtirilayotgan bo'lsa, u holda elektron pochta orqali qabul qilish uchun buyurtma blankasini joylashtirish kerak.

Informatsion qo'llab-quvvatlash. Bu bo'limda qo'shimcha texnik ma'lumotlar, ko'p beriladigan savollar, noto'kisliklarni bartaraf qilish uchun maslaxatlar va hokazolar e'lon qilinadi.

Yangiliklar. Xaridorlarni firma tomonidan chiqarilayotgan yangi maxsulotlar va ko'rastilayotgan yangi xizmatlar to'g'risida xabardor qilib turing, press-rilizlarni chop qiling va hokazo.

Teskari aloqa. Siz bilan qanday aloqaga kirishish mumkinligini va qaerda joylashganingiz to'g'risida xabar bering. Izoxlar formasi, mexmonlar kitobi, xaridor o'z fikrlarini jo'natishi uchun elektron pochta adreslari va h. ni joylashtiring.

Web-bo'g'inni to'ldirishda doimo ikki tamoyilni yodda tutish kerak: o'ziga xoslik va e'lon qilinayotgan materiallarning ishonchliligi.

O'ziga xoslik mazmunga qo'iladigan eng birinchi talabdir. WWW da shunga o'xshash ko'plab sahifalar bo'lishi mumkin. Sizning Web-bo'g'iningiz shunga o'xshash tematikadagi serverlardan farq qilishi kerak, xech bo'lmaganda diqqatni o'ziga jalb qilish uchun. O'ziga xos materiallarni joylashtirilishi sahifangizga kiruvchilar sonini orttiradi. O'ziga xos ma'lumotlar resursi yaratish uchun printsiptial jihatdan yangi narsani yaratish shart emas, mavjud resurslarni boshqacha tartibda joylashtirish mumkin, lekin bunda xaridorga kerakli materialn qidirishda ko'p vaqt sarflashga majbur qilmaslik kerak. Resurslarning o'ziga xosligini zamonaviy qidiruv sistemalari yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Obro' jihatdan kelsak, u siz ma'lumotlarni qanchalik sinchiklab tanlashingiz, tekshiringiz va o'z vaqtida yangilab turishingizga bog'liq bo'ladi.

Web- bo'g'inni yaratishda shu narsani esda tutish kerakki, uni tashkil qiluvchi alohida dokumentlar bir xil bezash usuli va navigatsion vositalar bilan birlashtirilishi kerak. Yagona bezash usuli – bu professional Web-bo'g'inni havaskor Web-bo'g'inlardan farqlovchi ko'rsatkichlardan biridir. Bir xil

ko'rinishda qilinga dokumentlar tufayli foydalanuvchilar sizning Web-bo'g'imizni boshqalardan ajrata olishadi va eslab qolishadi. Bu dokumentlar xuddi ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshashi kerakligini bildirmaydi, lekin umumiy g'oya, yagona usul doimo bo'lishi kerak.

Shu narsa sahifalar bo'ylab navigatsion vositalarga ham tegishli. Web-bo'g'inga kiruvchi uni xuddi siz kabi yaxshi biladi deb o'ylamaslik kerak. U hozir o'zining qaerda turganligini va boshqa hohlagan joyga qanday o'tishi mumkinligini qiyinchiliksiz bila olishi kerak. Birinchi sahifaga, qidiruv dasturiga yoki Web-bo'g'in sxemasiga o'ta olish imkoniyati ko'rib qo'yilishi kerak.

Bundan tashqari usulning bir xilligi bekash va navigatsiya (ma'lumotlar to'ldirmasdan)ning faqatgina oddiy elementlariga ega shablon- sahifalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ularning yordamida yangi sahifalarni tez va unumli tarzda yaratish va uni yaratishda ishni bir necha kishiga taqsimlash mumkin. Tayyor sahifani olishda shablondan foydalanishda unga faqatgina kerakli ma'lumotlarni kiritiladi. Ketma-ketlilik, mantiqiylik, doimiylik – yaxshi Web-bo'g'in uchun kerak bo'ladigan xususiyatlar. HTML 4.0 da paydo bo'lgan usullarning kaskadli jadvallari sizning Web-bo'g'iningiz stilini hosil qilish va o'zgartirish bo'yicha qilinadiga ishlarni anchagina soddalashtiradi. Ularning bazi bir imkoniyatlari to'g'risida quyida hikoya qilinadi, alohida bo'lim esa ulaga bag'ishlanadi.

Maqsadlar aniqlanib, struktura berilgan va matnli va grafik ma'lumotlar yig'ilgandan keyin Web-bo'imning tashqi ko'rinishini ishlab chiqish kerak. U yana erishish kerak bo'lgan maqsadlarga ham bog'liq bo'ladi. Mumkin bo'lgan yechimlar cpektri juda keng: mavjud sahifalarni ko'rish va unga o'xshashlarini yaratishdan tortib professional dizayner va rassomlarga murojaat qilishgacha. Shu bilan bir vaqtda Web-bo'g'in tashkil topgan Web-dokumentlarni qurishning o'rnashib ulgurgan qoidalarini ham yodda tutish kerak.

Struktura. Bugungi kunda dokument strukturasi to'grisidagi qarashlar qat'iylashdi. Web-dokument o'zida quyidagi bo'limlarga ega bo'lishi kerak: sarlavha, kompaniya nomi, navigatsion panel, hususiy mazmun, kontakt ma'lumotlari, yangilanish sanasi va vaqti, mualliflik xuquqi va dokument statusi.

Logotip. Web-sahifani yaratishda firmaning nomi doimo ekranda bo'lishi to'g'risida qayg'urish kerak. Buning uchun har bir Web-dokumentning boshida odatda chiroyli qilib bezatilgan firma logotipi joylashtiriladi. Bundan tashqari kompaniya nomi barcha dokumentlarga kiruvchi ma'lumotlarda ham bo'lishi kerak.

Navigatsion panel. Web-dokumentdagi eng muhim bo'limlardan biri bu navigatsion panel yoki boshqaruv panelidir. WWW undagi gipermatnli o'tishlar e'lon qilinayotgan metrialalar orasida bog'lanishlarni yuzaga keltirganligi hisobiga butub dunyoni egalladi. Lekin xuddi shu o'tishlar to'la xaos havfini ham yuzaga keltiradi, zanjir bo'ylab uch-to'rtta dokumentni o'gandan keyin, orqaga qaytolmay qolasiz. Sizning web-bo'g'iningiz aniq va intuitive tushunarli navigatsion yo'nalishlar bilan ta'minlashi kerak.

Ko'plab o'tkazilgan izlanishlar ko'rsatadiki, Web-serverlarga kiruvchilar juda sabrsizdir va serverdagi ma'lumotlar bo'yicha ikki darajadadan ortiq ichkari

kirishni istashmaydi. Shuning uchun katta hajmdagi Web-bo'g'irlarini yaratayotganda har qanday ma'lumot bir-ikki o'tishlardan uzoq jiyilashmagan oraliq, odatda birinchi-ikkinchi darajada joylashuvchi dokumentlarni ko'rib chiqish kerak.

II. TEXNOLOGIK QISM

2.1. Sahifani yangilab turish usuli.

Odatda sahifalar FTP (File Transfer Protocol, Fayllarni uzatish protokoli) protokoli bo'yicha yangilab turiladi. Ayrim FTP-klientlar provayder kompyuteridagi fayllar bilan xuddi o'zining kompyuteridagi fayllar singari ishlash imkoniyatini beradi, yani nusxa olish, o'chirish, qayta nomlash va hokazo.

Odatda Web-bo'g'inni joylashtirish xizmatini provayder ozgina to'lov evaziga yoki butunlay bepul amalga oshiradi.

Web-bo'g'in ostida elektron pochta adresi va boshqa xizmatlar bilan joy ajratadigan xizmatlar mavjud. Qoidaga binoan bunday "bepul" joylashtirishning sharti bu reklama uchun sizning sahifangizdan joy olishdir. Undan tashqari sizning fayllaringizning o'lchamlariga chegaralar qo'yiladi.

Grafik dizayn.

Bu yerda biz dizayn haqida gapiramiz. Rasm chizish yoki kompozitsiyalar qila olish to'g'risida emas – buning uchun qobiliyat va ta'ning o'zi yetarli. Va bundan tashqari ko'gina foydalanuvchilar Photoshop yoki CorelDRAWni ozgina o'ragnib olib, o'zalarini dizayner deb hosoblasalarda, biz xech qanday grafik paket bilan ishlash xususiyatlari to'g'risida gapirmaymiz. Dizayn to'g'risida huddai fan singari gapiramiz. Yana aniq, aksioma va qoidalar yordamida tuzilgan, adashishlar va kashfiyotlar qilingan fan singari.

Siz faqat shu bobni o'qibgina dizayner bo'lmaysiz. Lekin biz o'laymizki, sizlar asosiy narsani tushunasiz: agar biror narsa yaxshi qilingan bo'lsa, u ob'ektiv sabablarga ko'ra yaxshi qilingan va boshqa savol, yaratuvchi bu narsaga nimani hisobiga erishdi – o'z qobiliyati yoki nazariy bilimlari hisobiga.

Biz o'quvchi shu narsani tushunishini hoxlaymiz: rassomlik qobiliyatiga ega bo'masdan turib ham dizayner bo'lish mumkin. Lekin buning uchun inson "nima yaxshiyu nima yomon"ligini aniqlaydigan qoidani juda yaxshi tushunib olish kerak.

Biz o'lcham, shakl, tekstura rangi, joylashishi va shrift kabi tushunchalar to'g'risida fikr yuritamiz. Yana kompozitsiya masalasiga ham tegib o'tamiz. Shakllantirishga urinib ko'raylik, tanlash, ayniqsa tanlashdan voz kechish nimaga asoslanadi. O'zingiz tushunasiz, ko'pincha variantlar juda ko'p buladi, yaxshilari esa sanoqli. Biz boshlovchi dizaynerlar yo'l qo'yadigan asosiy hatolarni va ularning kattaroq hamkasblarida bo'ladigan adashishlarni aks ettirishga harakat qilamiz.

Lekin bu dizaynga soddashtirilgan qarash xolos. Agar bu sizga qiziqarli ko'rinsa, dizaynning asosiy savoli – "qanday qilib chiroyli qilish mumkin"ga bundan ko'ra yaxshiroq javob bera oladigan ko'plab kitoblar mavjud.

O'lcham. Olcham nimaligi hammamizga u yokibu darajada yaxshi ma'lum – maktab davrlarida geometriya bu to'g'rida aniq ta'rif bergan. Lekin inson his to'yg'usi uchun o'lcham aniq matematik ifodalangan tushuncha hisoblanmaydi. Maslan agar biz evkaliptning balandligini 100 metrga yaqinligini bilsak, bu bizga unchalik ko'p narsa bermaydi. Lekin agar bu 30-qavatli uyning balandligi ekanligini bilsak, u holda bu daraxtning balandligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qila olamiz.

Shunday qilib o'lcham- nisbiy tushuncha. Biz uni 20cm, 3m, 5km sifatida emas, balki “mitti”, “o'rtacha”, “katta”, “ulkan”, “bahaybat” kabi qabul qilamiz. Hammasi inson qabul qiladigan sezgilarga asoslanadi, inson sezgisi esa juda egiluvchan. Biz jurnaldagi minatyurani ko'rayotganimizdagi katta va kichik tushunchalar katta kartinani ko'rayotganimizdagi katta va kichik to'g'risidagi tushunchalardan farq qiladi.

Ishdagi aniq bir ob'ekning o'lchamlarini tanlashda kompozitsiya birgalikda qabdaydir g'oyaga (umuman olganda, zamonaviy dizaynning asosiy vazifasi – ma'lumot yoki buyg'uni maksimal darajada yetkazib berish) ega bo'lishi to'g'risida o'ylash kerak. Shuning uchun, aytaylik, uyali telefon reklamasida aynan uyali telefon ajralib turishi kerak.

Kompozitsiyadagi biror bir ob'ektga e'tiborni nafaqat uning hajmini boshqa ob'ektlarga nisbatan kattaroq qilib jalb qilish mumkin, balki buning teskarisi: katta hajmdagi detallarga keskin qarshi turuvchi kichkina detalga ham jalb qilish ham mumkin. Bu holatda aynan u asosiy ma'lumot sifatida, qolganlari esa fon sifatida qabul qilinadi. Bu narsa biz tomoshabinlarning e'tiborini bitta raqamga jalb qilgan 1-rasmda ko'rsatilgan.




1-rasm. Kompozitsiyadagi ob'ektga e'tiborni nafaqat uning hajmini kattaroq qilib jalb qilish mumkin, balki buning aksi ham bo'lishi mumkin

Shuning uchun bitta kompozitsiyada yaxshi “ishlovchi” ob'ekt (ko'pincha) boshqasiga o'lchamlarini yazshilab o'gartirmasdan turib, mos kelmaydi. Buda ishni bajarayotganda nafaqat ko'zga (ko'z bilan olingan ma'lumotni qanchalik aldamchiligini professionallar juda yaxshi bilishadi), balki shakl, tekstura, va ranglarning odamning o'lchamni qabul qiluvchi sezgilariga ta'siri to'g'risidagi o'z bilimlariga ham tayanish kerak.

Shakl va o'lcham. O'lchamni qabul qilish ob'ekning shakliga bog'liq bo'ladi. Bu inson ko'zining yorug'lik interferentsiyasini qabul qilish xususiyatlari bilan bog'liq. Amalda murakkab tuzilishga ega, asosan bo'laklardan iborat


ob'ektlarning o'lcham jihatidan qiyin baholanishiga ko'p bor duch kelish mumkin. Albatta, agar ularning nisbatan katta, qolgan kompozitsiya ob'ektlariga nisbatan gabaritlari solishtirsa bo'ladigan bo'lsa, bunday muammo yuz bermaydi. Lekin murakkab shaklning kichik bo'laklari umuman ob'ektning o'chamiga ta'sir qiluvchi qismi sifatida qabul qilinmaydi.



2-rasm. Bu figuradagi nurlar bu ob'ektning qirralari sifatida qabul qilinmaydi

Bu misol bizni shaklning o'lchamni qabul qilishga munosabatini belgilovchi asosiy tushunchaga olib keladi. Bu kompaktilik yoki zichlik. Ba'zida eng zich figura sifatida adabiyotlarda doira keltiriladi. Bizningcha, bu juda ham to'g'ri emas.


Biz shaklning kompaktiligini uning maydonini belgilangan chegaralardagi to'ldirilmagan sohaga nisbati sifatida aniqladik. Murakkabmi? Misolda tushuntiramiz. Aytaylik, sizga ikki figura- to'rtburchak va doirani ikki tanga va markalarga joylashtirish kerak bo'lib qoldi (3-rasm).



3-rasm. Doira va kvadrat shaklidagi ob'ektlarni joylashtirish: *a* - markaga; *b* – tangaga. Ko'rinib turibdiki, marka uchun kvadrat kompaktrroq figura hisoblanadi, tangu uchun esa doira.

Qabul qilishning mana shu nisbiyligini doimo yodda tutish kerak, chunki aynan kompaktilik o'lchamlarni qabul qilishni belgilaydi. Sichroq figura doimo yirikroq ko'rinadi. Bunarsa 3-rasmida aniq ko'rinib turibdi, ayniqsa markada.


Bu hossadan amalda quyidagicha foydalaniladi. Aytaylik, ikkita masala turgan bo'lsin: vizitkalarda foydalanish uchun shartli ravishda "AGGW" deb nomlanuvchi kompaniyaning logotipini chizish kerak bo'lsin. Agar siz kartochkada bu elementning muhimligini ta'kidlamoqchi, unga e'tiborni jalb qilmoqchi bo'lsangiz, u holda logotipning kompakt shaklda tayorlashga to'g'ri keladi (4-rasm, *a*). Agar logotip e'tiborni jalb qilmasligini, balki faqat fon sifatida ishlatilishini hohlasangiz, u holda sizning tanlovingiz (4-rasm, *b*) bo'lishi kerak. Va bu, e'tibor bering, vizitkaning bir hil o'lchamlarida.



4-rasm. Logotip shakli: a – kompakt; b – kompakt bo'lmagan

Tekstura va o'lcham. Teksturaning qo'llanilishi yangi effektlarni yasash, predmet qiyofasini murakkablashtirish, unga ma'no berish imkoniyatini yaratadi. Lekin tekstura yana ob'ektning o'lchovini qabul qilishga ham ta'sir qilishi mumkin va buni albatta hisobga olish kerak.

5-rasmda bir xil geometrik o'lchamga ega ikkita kvadrat keltirilgan. Lekin shunga qaramasdan tik polosali kvadrat ancha “og'ir”, gorizontal tekislikka nisbatan yirikroq ko'rinadi. Gorizontal polosali kvadrat esa yengil ko'rinadi.




5-rasm. Yorug'roq predmetlar katta ko'rinadi: yorqin chiziqlarning yo'nalishi shu yo'nalish bo'yicha predmetning uzayishi kabi illyuziyani hosil qiladi

Bu effekt anchadan beri ma'lum. Eski jurnallardayoq to'la ayollarga vertikal polosali ko'ylaklar kiyish to'g'risidagi tavsiyalarni o'qish mumkin – ular ayollarni aslidaginga nisbatan oriqliroq ko'ratish xususiyatiga ega.

Amalda bu hodisadan ko'p foydalaniladi. Ob'ektga qo'shimcha “mustaxkamlik” ebrish kerak bo'lsa, gorizontal yo'nalganligi yorqin ravishda ko'rinib turgan rasmlardan (aytaylik, g'isht taxlami teksturasi) foydalaning. Agar aksincha, bosib turuvchi o'lchamdan qutulmoqchi bo'lsangiz, vertikal yo'nalishga asoslaning.

Tekstura bilan yana bitta effekt bo'g'langan. 6-rasmdagi birinchi tasvir go'yoki bizdan uzoqlashib borayapti, ikkinchisi esa, aksincha, yaqinroq ko'rinadi. Bu effekt oq rangning o'zining fonidagi barcha predmetlarni “egishi”ga asoslangan. Bu effektni bilish va uning asosida ku kitobda ko'plab misollar qilingan aylanaviy gradiyentlar bilan ishlashda qo'llay bilish kerak.


Shunday qilib tekstura ob'ektlarni tasvirlashda ijobiy ham, salbiy ham (uni noto'g'ri tanlanganda) ta'sir qilishi mumkin. Bunga juda e'tibor bering va shunda bunga o'xshash narsa siz bilan sodir bo'lmaydi.



6-rasm. Oq va qora aylanaviy polosalarning almashishiga asoslangan effektlar: *a* - uzoqlashish; *b* - yaqinlashish

Rang va o'lcham. Bu biz uchun o'lchamlarga bag'ishlangan eng murakkab qismdir. Masala yana o'sha – uni qabul qilishning nisbiyligidir. Ko'pincha biz yirikroq, boshqalari orasida ajralib tradiganlariga, garchi bunga ob'ektiv sabablar bo'lmasada, e'tibor beramiz.


Shunday qilib, birinchi va eng asosiy hossa: qora fondagi yorqin ob'ektlar yorqin fondagi qora ob'ektlarga nisbatan yirikroq ko'rinadi (7-rasm).



7-rasm. Qora fondagi yorqin ob'ektlar yorqin fondagi qora ob'ektlarga nisbatan yirikroq ko'rinadi

Bir biridan yorqinligi bo'yicha keskin ajralib turuvchi, masalan, logotipdagi ob'ektlarning simmetrikligini ta'kidlamog'chi bo'lsangiz, buni albatta hisobga olishingiz kerak. Tomoshabinga siz o'z ishingizni unchalik sifatli bajarmagandek ko'rinishingiz uchun qora elementni kattaytirishga to'g'ri kelishi mumkin.

8-rasmda biz qora doira radiusini 2%ga orttirdik – yo'qsa logotip o'ylanganichalik chiqmasdi.



8-rasm. Bu ishda doiralar bir xil ko'rinishi uchun qora doiraning radiusi oqinikiga nisbatan 2% ga oshirilgan

Shunga o'xshash, yorqin-qizil element o'zi bilan teng to'q-ko'k elementga nisbatan ancha kattaroq ko'rinadi. Buni ham ish jarayonida e'tiborga olish kerak.

Rang. Biz rangli dunyoda yashaymiz. Har kuni, hatto uydan chiqmasdan turib ham, inson juda katta sondagi ranglarni ko'radi. Miz bunga ko'nikib qolganmiz va ranglarning tabiati, ular bizga va bizning hatti-harakatlarimizga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylamaymiz ham. Garchi bu, balki unchalik to'g'ri bo'lmasada: har bir ayol qanday holda yorqin-qizil ko'ylak kiyishni, kulrang kostyum esa qanday holda to'g'ri kelishini juda yaxshi biladi.

III. JIHOZLAR.

3.1 Shakllardan foydalanish

To'g'ri to'rtburchak.

To'g'ri to'rtburchak – dizayn uchun butunlay o'ziga xis figura, kompyuter dizayni uchun ayniqsa. Va buning sababi oddiy. Ko'pgina saqlovchilar: plakatlar, kitob sahifalari- deyarli barcha poligrafik maxsulotlari, kompyuter ekrani to'g'risida gapirmayoq, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Bunday holat bu figurani avtomatik tarzda eng ko'p ishlatiladigan, eng keng tarqalgan figura qilib qo'yadi.

To'g'ri to'rtburchakka asoslangan dizayn – bu eng oddiy va oshkora ko'rinib turgan yo'l. Buning isboti sifatida siz o'nlab web-sahifalarni ko'rishingiz mumkin va ishonch hosil qilishingiz mumkinki, ularning barchasi shu formadan kelib chiqqan.


To'g'ri to'rtburchaklar bilan ishlaganda eng muximi – proportsiyani to'g'ri tanlash. Kvadratga yaqin keluvchi figuralar unchalik yaxshi variant hisoblanmaydi: bunday yechim o'zining simmetrikligi to'fayli modadan qolgan hisoblanadi. Lekin judayam jo'zilganlari ham yomon: agar gorizontal bo'yicha bo'lsa, “yerlashganligi” tufayli, vertikal bo'yicha cho'zilgan bo'lsa, muvozanatsizligi tufayli.

Qadimdan oltin kesim deb ataluvchi to'g'ri to'rtburchak tomonlarining eng yaxshi nisbati ma'lum. Bu nisbat 0,618 ga teng. Albatta, bu har qanday vaziyatdan chiqish degani emas, lekin uni albatta hisobga olish kerak – butun klassik arxitektura oltin kesimga asoslangan.

Uchburchak.

Bu figura ko'p jihatdan yaxshi, lekin chiziqlar yoki to'g'ri to'rtburchaklar singari keng tarqalmagan. Sababi shundaki, uchburchak kompozitsiyadagi qolgan figuralar bilan qiyin moslashadi.

Uchburchak, aytaylik, logotip asosida yomon ko'rinmaydi (14-rasm).




ТРАНСПОРТБИС

14-rasm. Uchburchak asosidagi logotipga misol

Bu holatda figura asosining pastga qo'yilgankigi ajoyib tuyg'uni beradi – figuraning, va bu esa o'z navbatida kompaniyaning mustaxkamligini. Bunday effekt anchadan beri ma'lum, shuning uchun butun dunyodagi ko'plab firmalar uchburchakni o'z belgilari qilib tanlaganlar.

Bu figura bilan erishiladigan ikkinchi effekt – “ko'rsatuvchi” effekti. Uchburchakning strelkani – biz ko'nikkanimizdek, yo'nalishning standart ko'rsatkichini eslatishi uni tomoshabinlar e'tiborini yo'naltiruvchi element sifatida

ishlatishga imkon beradi. Masalan, 15-rasmda shartli idea.com saytidagi so'zlarning qiymatlariga e'tibor qaratilgan.



15-rasm. Fondagi uchburchak bu misolda ko'rsatkichli strelka vazifasini o'ynaydi

Fon sifatida ishlatiladigan uchburchak yordamida biz bir tomondan saytning sifatlarnini ajoyib tarzda gruppalay oldik, ikkinchi tomondan – bu ma'lumotni birdaniga sayt nomiga yo'naltira oldik. Boshqa usullar bilan bunga erishish oson emas.

Doira.

Doira ko'pgina rivojlangan jamiyatlarda eng mukammal, ilohiy figura hisoblanilgan. Doira quyoshning belgisi bo'lgan, maqbara va qurbonlik uchun mexroblar doira shaklida qurilgan.

Zamonaviy dizaynda bu figuraga xurmatdan iz ham qolmagan. Doira sahifalarning va ekranning to'g'ri to'rtburchak shakli bilan judayam kontrastga kirishadi.

Albatta, kontrast – bu unchalik yomon emas, lekin kompyuter dizayni sohasida kontrast asosida sifatli ishlar bajarish – bu haqiqiy professional mutaxassislargina bajara oladigan narsadir.

16-rasmda bosmoxonalardan birining saytini birinchi sahifasi ko'rsatilgan. Sahifaning yaxshichiqishiga sabab shuki, rubrikator aylananing butun uzunligi bo'yicha tarqatilmagan, uning bir tomoni bo'ylab kompakt tarzda joylangan. Bundan tashqari yuqoridagi yirik gorizontal matnli blok kompozitsiyaga stabillik qo'shadi. Lekin baribir brauzer oynasida sahifa unchalik muxim ko'rinish olmaydi.



16-rasm. Aylana asosida qurilgan web-sahifa

Siz o'zingiz eslashga urinib ko'ring, aylana asosida qurilgan saytlarni ko'p

ko'rganmisiz. Bu sahifani original tarzda bezatishning eng yaxshi usuli, lekin shu bilan birga uni buzub qo'yishning ham eng oddiy usuli hisoblanadi.

Hozirgacha doira o'zini to'la oqlaydigan yagona narsa bu logotiplarni yaratishdir. Mimkinki, deyarli barcha firmalarning belgilarining yarmi o'zining asosida doirani qabul qilgan. GARCHI, faqat ba'zilarini istisno qilganda, bu ishlar ma'no jihatdan ham, bajarilishi jihatdan ham originalligi bilan ajralib turmasada. Eng keng tarqalgan misol – aylana yordamida “O” harfiga o'xshatish (17-rasm).




17-rasm. Aylana yordamida “O” harfiga o'xshatish – bu figuradan dizaynda muvaffaqiyatsiz foydalanishga misol

Bir so'z bilan aytganda, agar sizda tajriba kam bo'lsa, bu figura bilan hozircha ishlamagan ma'qul. Qachon yahshi mutaxassis bo'lganingizda aylana bilan ishlash siz uchun bartaraf qilib, original natijalarni olsa bo'ladigan qiyinchiliklarni chaqiruvchisi bo'lib qoladi.

Egri chiziqlar.

Egrilik - bu bir nechta har xil darajadagi egrilikka (matematik til bilan u ikkinchi tartibli egri chiziq deyiladi) ega bo'lgan chiziq (18-rasm).



18-rasm. Ikkinchi tartibli egri chiziqlardan tuzilgan figura

Zamonaviy kompyuter dizaynida bu figuralar yetarli darajada keng qo'llaniladi (asosan ular to'g'ri chiziqlar bilan bir xil maqsadlarda ishlatiladi). Ammo ular bilan haddan tashqari qiziqib bo'lmaydi: siz asrning boshlarida urf bo'lgan Modern stilida bajarilgan ishni olishingiz mumkin, bu esa unchalik yaxshi emas.

Formaning yo'qligi.

Albatta, formaning yo'qligi tug'risida gapirish unchalik ham to'g'ri emas-forma doimo mavjud bo'ladi. Lekin uning murakkabligi tahlil qilish imkoniyatini yo'q qilsa, bunday ob'ektni formasiz deb atash mumkin.

IV. IQTISODIY QISM.

Rang

Umuman olganda bu bo'limda aytilgan rangli dizaynga bag'ishlangan barcha qoidalar matnlar uchun ham o'rinli. Faqat bir fikrni qo'shib qo'yish kerak: agar siz bitta so'zdagi bitta harfni yoki bitta gapdagi bitta so'zni ajratib ko'rsatmoqchi bo'lsangiz, u holda yoki rangdan foydalaning, yoki garnituradan. Ularni birgalikda ishlatish hayratlanarli darajada yomon natijaga olib keladi (22-rasm).


PHOTOSHOP PHOTOSHOP
PHOTOSHOP

22-rasm. Fragmentni ikki marta ajratib ko'rsatish (garnitura va rang bilan) – yomon usul

Qisqacha kompozitsiya to'g'risida.

Kompozitsiya to'g'risida suhbat boshlash xech bo'lmasa shuning uchun murakkabki, bu mavzu alohida e'tibor talab qiladi. Biz kompozitsiyalar mavzusini ochishga talabgor emasmiz- buning uchun, agar siz haqiqatda professional dizayer bo'lmoqchi bo'lsangiz, o'qishingiz mumkin bo'lgan maxsus kitoblar bor. Ammo agar siz kompozitsiyalar nazariyasi bilan umuman tanish bo'lmasangiz, bu bo'limni diqqat bilan o'qib chiqing.

Kompozitsiyalar nazariyasining asosida biz ko'p natsani ixtiyorsiz, instinkt va reflekslar darajasida qabul qilishimizni tushunish yotadi. Ob'ektlarning bir xilda joylashishida barcha kishilarda bir xil reaksiya hosil bo'ladi. Masalan, 23-rasmdagi aylana bilan to'rtburchakning qanday joylashishida sizda havf, o'ng'aysizlik tuyg'usi hosil bo'ladi? Mualliflarning ishonchi komilki, bu *b* variantdir.



23-rasm. Kompozitsiyadagi ob'ektlarning turlicha joylashuvlari qarama-qarshi tuyg'ularni vujudga keltirishi mumkin: *a* - stabillik; *b* – o'ng'aysizlik

Shunday qilib har qanday kompozitsion ish asoslangan bo'lishi kerak. Dizaynda esa, ko'pchiligimizni hayratlantirib, nazariyani bilmasdan turib, kerakli natijaga deyarli erishish mumkin emas.

Kompozitsiyaning asosida ikki tushuncha yotadi: yaxlitlik va kontrast.

Yaxlitlik.

Bu tushuncha o'zida bitta maqsadga olib kelishi kerak bo'lgan ko'plab talablarni jamlaydi. Hatto aytish mumkinki, yaxlitlik – bu usul emas, balki dizayndagi maqsad, yakuniy natijada ish, u logotip yoki Web-sahifa bo'ladimi, yaxlit butun ko'rinishiga bo'lgan talabdir.

Amalda esa bu o'zni vositalar tomonida juda chegaralashni bildiradi. Sodda qilishdan qo'rqmang! Aksincha, sizning dizayningizdan soddaroq nimadir o'ylab topish qiyin bo'ladigan darajada soddalikka intiling. Agar shriftning bitta garniturasidan foydalanishga imkoniyat bo'lsa, bitta garnitura ishlatib, butun dizaynni bitta figuraga keltirish imkoniyati bo'lsa, keltiring.

Yaxlitlik tamoyiliga ko'pincha boshlovchi web-ustalar amal qilishmaydi. Bizningcha, siz GIF-animatsiyalar, katta hajmli elementlar, ulkan sarlavhalar va juda yorqinranglarda yaratilgan ijod namunalarini ko'p bor ko'rgansiz. Ayniqsa o'larini professional dezayner hisoblovchi va o'z xizmatlarini anchagina katta mablag' evaziga taklif qiluvchi bu asarlarning mualliflari juda o'ng'aysiz ko'rinishadi. Ularning xatolarini takrorlamang, aqlsiz yoki uquvsiz ko'rinishdan qo'rqmang- oddiylikka intiling.

Kompozitsiyada yaxlitlikka erishishning eng muxim komponenti – bu muvozanatga erishish. Muvozanat – sizning ishingisni ko'rgan kishilarda “bu yerda nimadir yetishmayapti”, degan tuyg'u hosil bo'lmasligining garovi.

Kompozitsiya muvozanatiga nafaqat ob'ektlarning nisbatan bir tekis raqsimlanishi hisobigagina emas, balki ularning o'lchamlari, rangi, yorqinligi, formasi hisobiga ham erishiladi. Masalan, web-sahifaning bir tomonida sizda kattagina matnli blik bo'lsa, u holda ikkinchi tomondan bezak yoki qora fon hisobiga muvozanatga keltirish mumkin.

Muvozanat asosan ikki tipli bo'ladi: rasmiy va norasmiy.

Rasmiy muvozanat kompozitsiyaning optik markazi atrofidagi simmetriyani nazarda tutadi. Rasmiy muvozanatga ko'proq simmetriyaning hisobiga erishiladi.


Rasmiy muvozanat – bu kompozitsiyadagi garmoniyaga erishishning eng oddiy usullaridan biridir. Lekin u simmetriyani nazarda tutadi, simmetriya esa, bu kitobda bir necha bor ta'kidlanganidek, zamonaviy dizaynda deyarli aqqli yechim deb hisoblanilmaydi. Har holda usiz yomon qilgandan ko'ra simmetriya bilan yaxshi qilgan ma'qulroq. Bu haqda xech bo'lmasa shu narsa bildiraki, klassik san'at, ayniqsa klassik arxitektura, o'z asosida rasmiy muvozanat tamoyillariga amal qilib keladi: oltin kesim proportsiyasi, formalarning qat'iyiligi, absolyut simmetriya.

Rasmiy muvozanatni quyidagi sifatlar aniq ta'kidlashi mumkin:

- konservatizm;
- doimiylik;
- mustaxkamlik;
- munosiblik.

Ammo hozir ikkinchi tip- norasmiy muvozanat ko'proq ishlatiladi. U rasmiy muvozanat kabi aniq tiniq belgilarga ega emas, shuning uchun unga intuitsiya va ta'bga asoslangan holda erishish mumkin.

Norasmiy muvozanatga ko'plab usullar bilan erishish mumkin, lekin ularning mazmuni bitta anchagina sodda fikrga olib keladi: simmetriyadan tashqari hamma narsa mumkin. Yani agar siz web-sahifada yoki reklama varaqchasida yirik figurani joylashtirgan bo'lsangiz va u boshqalardan kuchli darajada ustunlik qilayotgan bo'lsa, boshqa figuralarning ranglarini o'zgartirish hisobiga uning yorqinligini kamaytirish mumkin. Va teskarisi, yirik matnli blok o'lchami bo'yicha ancha kichik, lekin butun figuralar bilan engil muvozanatga kirishadi (25-rasm).



Norasmiy muvozanatga ko'plab usullar bilan erishish mumkin, lekin ularning mazmuni bitta anchagina sodda fikrga olib keladi: simmetriyadan tashqari hamma narsa mumkin. Yani agar siz web-sahifada yoki reklama varaqchasida yirik figurani joylashtirgan bo'lsangiz va u boshqalardan kuchli darajada ustunlik qilayotgan bo'lsa, boshqa figuralarning ranglarini o'zgartirish hisobiga uning yorqinligini kamaytirish mumkin. Va teskarisi, yirik matnli blok o'lchami bo'yicha ancha kichik, lekin butun figuralar bilan engil muvozanatga kirishadi

25-rasm. Yirik matnli blok o'lchami bo'yicha ancha kichik, lekin butun figuralar bilan engil muvozanatga kirishadi.

Norasmiy muvozanatga erishishda eng murakkabi biz shu bobni boshlagan qoidamizni buzmaslik – hammasini oddiy qilish. Variantlarning ko'pligi shunga olib keladiki, biz u yerga ozgina qo'shamiz, bu yerga ozgina qo'shamiz, va natijada zamonaviy dizaynni o'rniga ob'ektlar uyulmasini olamiz.

Kompozitsiyaning yaxlitligi uchun barcha elementlar (iloji boricha) yagona *ritmga* rioya qilgan holda joylashsin. Ritm – bu kompozitsiyada ob'ektlar bilan bo'sh o'rinlarning yoki ob'ektlar bilan boshqa ob'ektlarning belgilangan tartibiga rioya qilishdir (26-rasm).



Rasm . 26. Logotip dizaynida ritmdan foydalanish

Aniq bir ritmga erishishga intilishda (axir u ishning umumiy “kayfiyatiga” kuchli ta'sir qiladi) eng oddiy echimdan – oshkora simmetriyadan qochishga harakat qiling.

Kontrast.

V. MEHNAT MUHOFAZASI

Mehnatni muhofaza qilish qonuni bilan ko'pgina zavod, korhona va firmalardan shaxsni mehnat faoliyatining tinch va havfsiz uzatish sharti bo'lishi kerak bu shartlarni ma'muriyat tashkil etadi.

U yerda yangi zamonaviy oldingisiga qaraganda, havfsizroq texnika bilan ta'minlash va ishlab chiqarish jaroxatni oldini olish kerak.

Mehnat gigiyenasi odamlarning ishlab chiqarish muhitiga odamlarning sog'lig'iga qanday ta'sir qilishni o'rganadi. Ishlab chiqarishda ergonomika va estetika-ishlab chiqarish madaniyatini bir qismi hisoblanadi ya'ni ish joyining tog'ri obstanovka qilishdir. Masalan, ish joyining yoki ish stolining to'g'ri rejalashtirish, shunda monitorni o'zini qulay turishi, klaviatura turadigan polkasi stolning ichiga kirib chiquvchi rolikli, protsessor stolining tegida uning tomonida bo'lishi kerak.

Ish xonani yoritilganligi. Xozirgi paytda ish xonalarning yoritilganligi standart ravishda o'rnatiladi. SNIP 11-4-79.

Elektr tokini odam organizmiga ta'siri. Ish xonalarda eskirgan tok simlari o'zgartirishda, yangilashda yoki EHM larga yangi qurilma qo'yishda, kuyib qolgan sxemalarni kompyuter yoqig'turgan holatda almashtirilsa, odamni tok urishi faoliyatni qisqartirishi mumkin (o'zini yo'qotish, nafas olmaslik yoki yurak to'xtab qolishi) organizmga bunday ta'sirini tok urish deyiladi.

Odam tok urishi xavfi borligini oldindan bilolmaydi chunki tokning bir xosiyati borki uni quloq bilan eshitib, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, sezib bo'lmaydi va hidi yo'q.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra ko'pgina odamning tanida tok oqimi qo'lidan boshlab oyog'igacha, bir qo'lidan ikkinchi qo'lga tok oqib o'tarkan, bunda tok odamning avvalo markaziy nerv sistemasini va yurak, o'pka organlarini shikastlantiradi.

Fan - texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri electron xisoblash texnikasini rivojlantirish va uni ishlab chiqarishda, ilmiy – tadqiqot ishlarida,

loyhashtirish ishlarida rejali xisob –kitoblarda, boshqaruv sohalarida keng qo'llash xisoblanadi. Oxirgi yillarda elektron xisoblash mashinalarini ishlab chiqarish ahamiyatli darajada kengaydi. Bu jarayonda umumiy maqsadli mashinalari bilan birgalikda mikroprosessorlari , mini-EXM (electron xisoblash mashinalari), mikro-EXM va shahsiy EXMlar katta o'rin egallaydi.

Hisoblash imkoniyatlarini ortishi bilan birgalikda narxi, gabarit o'lchamlari , elektr energiyadan foydalanishni kamayishi EXMlarni yanada kengroq sohalarda qo'llash imkoniyatini bermogda .

Ishlab chiqarish uchun xavfli va zararli faktorlar, ularning foydalanuvchilariga ta'siri o'rganib chiqilmoqda. Ishlab chiqarishda jarohatlanish profilaktikasiga va yuqoridagi faktorlarni foydalanuvchilarga, atrof –muhitga ogohlantiruvchi ko'ngilsiz voqealar ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan va kompyuterda yuqori ishlab chiqaruvchi ,sog'lom ,xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratuvchi tashkiliy va texnik tadbirlari ichlab chiqilmoqda.

5.1.KOMPYUTER XONASIGA VA UNDAN FOYDALANUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Agar bino bir qavatli bo'lmasa, kompyuter xonasi birinchi va ohirgi qavatlarda bo'lmagani ma'qul . Birinchi qavatda shovqin-suron tovushlari eshitilishi, chang-to'zon tushishi hamda o'g'rilik sodir etilishiga qulay sharoitlar mavjud bo'lishi mumkin. Eng yuqori qavatda bo'lsa ham qaznoq orqali o'g'ri tushishi ,qor –yomg'ir suvlari o'tishi,quyosh nuri tik tushib ,xona xaroratini ko'tarib yuborishi mumkin.

Kompyuterlar o'rgatilgan xona polli, devorlar suv qo'shib ishlatiladigan bo'yoqda bo'yalgan, albatta yerga ulangan, signallashtirilgan, eshik va oynalar temir panjaralar bilan mahkamlangan bo'lishi shart. Butun xona EHM xonasiga mos ravishda jihozlangan bo'lishi kerak.

Kompyuter xonalariga quyosh nuri tik tushadigan bo'lsa oynolarda xonani qorong'ilashtiruvchi qora darpardalar ham bo'lishi lozim. Kompyuterlarning barcha qurilmalari riloflar bilan qoplangan holda turishi kerak. Xonada xaroratni

o'lchab turuvchi xona termometri, kompyuterlar uchun himoya oynalari bo'lishi zarur, xonada **20-24 gradusli (ko'pi bilan 28 gradusgacha)** temperature saqlanishi lozim. Agar xona xarorati keragidan oshib ketsa yoki pasayib ketdigan bo'lsa, xona xaroratini mo'tadillashtirib turuvchikondisioner bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Xonada kaktus, alloy kabi tikanli o'simliklarning bo'lishi inson salomatligi uchun foydali.

Kompyuterdan foydalanuvchi har bir shaxs texnika xavfsizligi qoidalaridan xabardor bo'lmog'i lozim. Ochiq simlar, ochiq yoki noqulay rozetkalar bilan ishlamaslik kerak, inson salomatligiga xavf tug'diruvchi biror hid yoki boshqa bir belgi sezilsa, darhol rahbarni xabardor qilishi lozim. Imkoniyat bo'lsa, kompyuterdan foydalanuvchilar oq xalat kiyib shug'ullansalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

EHM yordamida o'tiladigan mashg'ulotlar soni 1 kunda 5-6-sinflar uchun 1 tadan, 10-10-sinflarda 2 tadan oshmasligi kerak.

Display qarshisida o'tirish vaqti:

5-sinf o'quvchilari uchun 15 minutdan,

6-7-sinf o'quvchilari uchun 20 minutdan,

8-9-sinf o'quvchilari uchun 25 minutdan,

10-11-sinf o'quvchilari uchun esa bir kunda 50 minutdan oshmasligi kerak.

O'n besh va undan ortiq yoshdagi o'quvchilarning kompyuter oldida o'tirish muddati, agar darslar ketma-ket juft soatlar tarzida qo'yilgan bo'lsa, bir kunda ko'pi bilan birinchi darsda 30 minut, ikkinchi darsda 20 minutdan oshmasligi kerak. Display (kompyuter ekrani) bilan foydalanuvchining ko'zi orasidagi masofa 40 smdan kam bo'lmasligi zarur.

Kompyuterda ishlash jarayonida ko'z charchashi, bosh aylanishi, ko'ngil aynashi yoki uyqu kelishi kabi bazi bir o'zgarishlar yuz beradigan bo'lsa, tanaffus qilish, ko'z uchun va tana uchun turli jismoniy mashqlar bajarish tavsiya qilinadi.

5.2.HISOBLASH MARKAZIDAGI ISHLAB CHIQUARISH UCHUN XAVFLI VA ZARARLI FAKTORLAR.

Zamonaviy xavfsizlik talablariga javob beradigan ,yuqori ishlab chiqaruvchi ishchi o'rnini yaratish bo'yicha ma'muriyat va kasaba uyushma tomonlaridan olib boriladigan katta ishlar, hisoblash markazdagi ishlarining ishlab chiqarishda jarohatlanishini va kasbiy kasalliklarini kamaytirishga ,mehnat sharoitlarini yaxshilashga olib keladi. Ammo ba'zi bir hisoblash markazlarida mehnat sharoiti va xavfsizligi qoniqarli emas.Hisoblash markazining ko'pchilik xodimlari quyida psixofiziologik faktorlar ta'sirida bo'ladi: aqliyzo'riqish,ko'rish va eshitish qobiliyatlarini zo'riqishi ,bir xil mehnat bajarish, ta'sirli yuklamalar(stress).

Ko'rsatilgan ko'ngilsizlik faktorlarining ta'siri natijasida rivojlanayotgan passivlik, charchash, xoldan toyishini paydo bo'lishi,ish qobiliyatini pasaytirishga olib keladi. Bu xolatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosh nerv sistemasining ish faoliyatini o'zgarishlariga, bosh miyadagi to'xtashi jarayonlarining o'zgarishlariga bo'g'liq.

5.3.YONG'IN XAVFSIZLIGI XARAKTERISTKALARI.

Yong'n xavfsizligi profilaktikasi- bu tashkiliy va texnik tadbirlari kompleksi bo'lib, insonlarni xavfsizligini ta'minlashga ,yong'inni oldini olishga ,uning tarqalishiga yo'l qo'ymaslikka, shu bilan birga yong'nni tez o'chirish sharoitlarini yaratishga yo'naltirilgan.

Yong'n – insonlar xayotiga xavf tug'diruvchi va moddiy ziyon etkazuvchi, vaqt va fazoda boshqrib bo'lmaydigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda murakkab , tez amalga oshiriladigan ximik reaksiya sodir bo'ladi, bunda juda ko'p miqdorda issiqlik va nurlanish tashqariga chiqadi.Alanga paydo bo'lishi uchun yong'nli modda ,oksidlovchi (odatda xavodagi kislorod) va alangalanish manbasi yetarli. Yong'nni xavfli faktorlari:ochiq ,alanga va uchqun, yuqori xaroratli xavo va buyumlari,yonuvchi toksik mahsulotlari , tutun ,kislorod konsentratsiyasi

bo'lgan xavo, binolarini, imoratlarini, turli o'rnatgichlarini shikastlanishi va buzilishi.

Zamonaviy EXMlarda elektron tizimlari elemenlari juda zich joylashgan. Bir-biriga juda yaqin masofada ulanish simlariva kommutasion kabellar joylashgan. Ulardan tok o'tganda ma'lum bir miqdorda issiqlik ajralib chiqadi, bu esa ba'zi bir qisimlarda xarorat 80-100°Cgacha boradi. Bunday xolatda ulanish simlariningizolyasiyalarini erishi extimoli paydo bo'ladi va qisqa tutashuv natijasida electron tizimlar elementlaridan yuklanish ortib,qizishga olib keladi va uchqunlanib yunib ketishi mumkin. Ortiqchaajragan issiqlikni EXMdan olib turish uchun doimo xavoni shamollatish(ventilyasiya) zarur.

EXMdan foydalanganda sozlash,ta'minlash va profilaktik ishlarni bajarishga tug'ri keladi. Bunday xolatlarda turli moylash moddalari,tez yonuvchi suyuqliklar yordamida vaqtinchali o'tgazgichlar, ba'zi qisimlarni tozalash ishlari bajariladi. Ushbu jarayonni va yuqoridagi barcha yong'inga sabab bo'luvchi jarayonlarni hisobga olib doimiy ravishda yong'n xavfsizligi profilaktikasini olib borish zarur.

XULOSA

Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirda keng qamrovli sohalarni o'zida mujassamlashtirib, bunda Power Point dasturi yordamida turli taqdimotlarni tayyorlash, oddiy grafik chizishdan to real borliqdagi turli tasvirlarni hosil qilish, ularga zeb berish, dastur vositasi yordamida hatto tasvirga oid yangi loyihalarni yaratish ko'zda tutilgan. U multimedia muhitida ishlash imkoniyatini beradi.

Kompyuter grafikasi nafaqat ilmiy xodimlar, balki rassomlar, turli soha loyihachilari, reklama bilan shugullanadigan mutaxassislar, Internet sahifalarini yaratish, Power Point dasturida turli xil mavzuklarni yoritishda taqdimotlar yaratish, o'qitish jarayoni uchun va boshqa sohalarda muhim rol o'ynamoqda. Uning, ayniqsa, nashriyotda qo'llanilishi keyingi paytlarda rang-barang, suratli adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, badiiy asarlarning paydo bo'lishida yuksak bezash texnikasidan foydalanishni taqozo qilmoqda. Diqqatni o'ziga jalb qiluvchi videoroliklar, Internet sahifalarini yaratishni kompyuter grafikasiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi.

Bitiruv malakviyda bugungi kundagi kompyuter grafikasi haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan. Grafik axborotlarni analogli yoki diskretli ko'rinishlari grafik usulda ko'rsatilgan. Grafikli axborot analogli shakldan diskretli shaklga diskretlash yo'li bilan o'tishi misollar bilan tushuntirib berilgan. Diskretli tasvir kichkina fragmentlarga bo'linadi (nuqta), har bir tasvirning o'z kodi bo'ladi.

Diplom loyihamni bajarish davrida men kompyuterning ichki tuzilishi, uning arxitekturasi, ularni ishga tayyorlash usullari, qo'shimchha qurilmalarni kompyuterga ulash, driverlarni o'rnatish ishlarini o'rgandim. Men kollejda o'zim qiziqqan sohani tanlab o'qidim va qiziqqan sohamni o'rganib o'z kasbimni mohir ustasi bo'lishga harakat qilaman. Bu harakatim davomida bilimlarimni yanada boyitish uchun oliy o'quv yurtlarida o'qishimni davom ettirib etuk mutahassis bo'lmoqchiman.

Kelajakda o'z mutahassisligimni yanada mukammal o'rganish niyatida oliygohlarda o'qish niyatidaman. O'qishlarni muvaffaqiyatli tugatib vatanim uchun etuk mutahassis bo'lishga harakat qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI.

1. A.Axmedov.N.Toylakov. "Informatika", T.,2001 y.
2. A.Aripov, A.Xaydarov."Informatika asoslari". 2002 y.
3. A.Abduqodirov, A.Xayitov. "Axborot texnologiyasi". 2002 y.
4. G.Yormatov, Yo.Isamuhamedov."Mexnatni muhofaza qilish". 2002 y
5. Y.G.Sibarov «Охрана труда в вычислительных центрах»
6. K.Yo'ldoshev, Sh.Mamatkulov, K.Muftaydinov."Iqtisodiyot asoslari" 2002 y.
7. U.Yuldashev, M.E.Mamarajabov, K.A.Mirvalieva. "POWERPOINT 97":O'quv qo'llanma.—T., 2001.—32 b
8. "INFORMATIKA": Kasb-xunar kollejlari uchun o'quv dasturi.G`G`Mualliflar jamoasi: A.A.Abdukodirov, R. D. Alov, R. R. Bokiev va boshkalar—T.:2000.—
9. "IBM PC SHAXSIY KOMPYUTERIDA ISHLASH": Raxmonkulova S. I.—Toshkent, 1998.
10. Sh.A.Nazirov "Obyektga mo'ljallangan dasturlash" Toshkent -2007 yil